SURUNKALI GLOMERULONEFRITI BOR BEMORLARNING COVID–19 BILAN KASALLANGANDAGI PESHOB TAXLILI

Axmedova Surayyo Nurali qizi - assistent
Toshkent tibbiyot akademiyasi (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: *Surunkali buyrak kasalligi (SBK) bilan og‘rigan bemorlarda kuzatilgan surunkali immunologik o‘zgarishlar, COVID–19 infeksiyalari xavfi va SBK bilan og‘rigan bemorlarda COVID–19 ning klinik ta’siri va o‘ziga xos terapiyasi o‘tkaziladi. Darhaqiqat, SBK bilan og‘rigan bemorlarda COVID–19 ni og‘ir darajasi namoyon bo‘lish xavfi SBK bo‘lmagan bemorlarga qaraganda 3 baravar yuqori; COVID–19 dan o‘lim o‘tkir buyrak kasalligi bilan og‘rigan bemorlar orasida 15–25% ni tashkil qiladi, hatto pnevmoniya rivojlanmasa ham.[1]*

Kalit so‘zlar: *peshob, proteinuriya, albuminuriya, Nicheporenko sinamasi, eritrosituriya, leykosituriya.*

URINE ANALYSIS OF PATIENTS WITH CHRONIC GLOMERULONEPHRITIS WHO HAVE CONTRACTED COVID-19

Akhmedova Surayyo Nurali kizi – assistant
Tashkent Medical Academy (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation: *Chronic immunological chenges observed in patients with chronic kidney disease(CKD),risk of COVID–19 infections, and clinical impact of COVID–19 in patients with CKD and specific therapy are reviewed. In fact, patients with SBK have a 3–fold higher risk of severe COVID–19 than patients without SBK. Mortality from COVID–19 is 15–25% among patients with acute kidney disease, even pneumonia does not develop.[1]*

Key words: *urine, proteinuria, albuminuria, Nicheporenko's test, erythrocyturia, leukocyturia.*

АНАЛИЗ МОЧИ У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКИМ ГЛОМЕРУЛОНЕФРИТОМ, ЗАБОЛЕВШИХ COVID-19

Ахмедова Сурайё Нурали кизи – ассистент
Ташкентская медицинская академия (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация: *В статье рассматриваются хронический иммунологические измененея, наблюдаемые у пациентов с хронтческой болезнью почек (ХБП), риск инфекций COVID–19, а также клиническое воздействие COVID–19 на пациентов с ХБП и особенности терапии. Действительно, риск тяжелого течения COVID–19 у пациентов с ХБП в 3 раза выше по сравнению с пациентами без ХБП; уровень смертности от COVID–19 среди больных острыми заболеваниями почек составляет 15–25%, даже в отсутствие развития пневмонии [1]*

Kalit so‘zlar*: peshob, proteinuriya, albuminuriya, Nicheporenko sinamasi, eritrosituriya, leykosituriya.*

Muammoning dolzarbligi: COVID–19 – bu butun dunyo bo‘ylab tez tarqalib kelayotgan, og‘ir asoratlar bilan kechadigan yangi, juda tez yuqadigan kasallik. Ba’zi hisobotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqtirilgan odamlarning 80 foizigacha engil va mo‘tadil alomatlar mavjud bo‘lib, ular nazariy jihatdan tibbiy yordamga murojaat qilmasliklari mumkin bo‘lgan guruhni anglatadi va shu bilan taxminiy tarqalishiga ta'sir qilmaydi, bu esa haqiqiy infektsiya darajasini hisoblashga ta‘sir qiladi [2]. COVID–19 asosan nafas olish alomatlari bilan tavsiflangan bo‘lsa–da, yurak–qon tomir kasalliklari va asoratlar ko‘pincha COVID–19 infeksiyalariga hamroh bo‘lib, COVID–19 bemorlarining kasalligi va o‘limini oshiradi [3].

Xuddi shunday, surunkali tizimli yallig‘lanish SBK bilan og‘rigan bemorlar orasida kasallik va o‘limni yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin [4].

Surunkali glomerulonefrit – buyrak glomerular apparatining progressiv diffuz immun–yallig‘lanish bo‘lib, natijasi skleroz va buyrak yetishmovchiligi. Surunkali glomerulonefritning namoyon bo‘lishi kasallikning rivojlangan shakliga bog‘liq: gipertonik, nefrotik, gematurik, yashirin. Surunkali glomerulonefrit diagnostikasida siydikni klinik va biokimyoviy tekshiruvi, buyrak ultratovush tekshiruvi, buyrak to‘qimasini morfologik tekshirish (biopsiya), ekskretator urografiya va renografiya qo‘llaniladi. Surunkali glomerulonefritni davolashda ovqatlanishni tartibga solish, kortikosteroid, immunosupressiv, antikoagulyant, diuretik, antihipertenziv terapiya mavjud.[5]

Maqsad: Covid–19 va surunkali glomerulonefritda peshob taxlili o‘tkazish va og‘irlik darajasini baxolash.

Tadqiqot material va metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent tibbiyot akademiyasida Covid–19 dan davolangan surunkali glomerulonefrit bilan davolangan 60ta bemorning kasallik tarixi tekshirildi.

– 1-guruh 15 (25%) ta Covid–19 va surunkali glomerulonefrit yengil kechishi bilan kasallangan bemorlar.

– 2-guruh 15 (25%) ta Covid–19 va surunkali glomerulonefrit o‘rta og‘ir kechishi bilan kasallangan bemorlar.

– 3-guruh 15 (25%) ta Covid–19 va surunkali glomerulonefrit og‘ir kechishi bilan kasallangan bemorlar.

– 4-guruh 15 (25%) Covid–19 bo‘lmagan surunkali glomerulonefrit yengil kechishi bilan kasallangan bemorlar olindi.

– Nazorat guruhi yoshi va jinsiga mos 15 nafar sog‘lom shaxslar olindi.

Tekshirish usullari: Asosiy va nazorat guruxlari peshobda proteinuriya, albuminuriya, Nicheporenko sinamasida eritrosituriya va leykosituriya.

Natijalar. Asosiy va nazorat guruxlari peshob namunalaridan olingan natijalarni o‘rtachga miqdori va o‘rtachga miqdordan siljish ko‘rsatgichlari.

Jadval №1

	1-gurux	**2-gurux**	**3-gurux**	**4-gurux**	**N-gurux**
Proteinuriya g/l	3.2±0,6	4.7±1.2	6.6±0.4	1.7±0.5	0.033
Albuminuriya g/l	1.6±0.4	2.3±0.6	3.1±1.1	0.9±0.09	0.007
Eritrosituriya /ml	3500±150	6500±350	9500±600	3000±100	1000±100
Leykosituriya /ml	1500±75	1900±200	2100±150	1100±125	900±100

Asosiy va nazorat guruxlari peshobda proteinuriya, albuminuriya, Nicheporenko sinamasida eritrosituriya va leykosituriyalardan olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki Covid–19 va surunkali glomerulonefrit og‘ir kechishi bilan kasallangan bemorlar boshqa guruhlarga nisbatan o‘g‘irroq ko‘rinishda o‘tadi.

Asosiy va nazorat guruxlaridan olingan natijalarni diagrammalar yordamida taqqoslash.

Diagramma №1



Xulosa. Covid 19 va surunkali glomerulonefrit(yengil, o‘rta og‘ir, og‘ir va Covid–19 bo‘lmagan yengil kechishi bilan kasallangan bemorlar) tashxisida peshob tahlilida proteinuriya, albuminuriya va Nechiporenko sinamasida eritrositouriya va leykositouriya ko‘rsatgichlarini oshib borishi kasallikning og‘irlik darajasiga va Covid 19 asoratlari bilan bog‘liq.

Surunkali glomerulonefriti bilan kasallangan va Covid 19 ni yuqtirgan bemorlarni diagnostik labarator analizlarni barvaqt o‘tkazish, kuzatilgan natijalarini erta aniqlashga, Surunkali glomerulonefriti va Covid 19ni og‘ir asoratlarini oldini olishga yordam beradi.

Adabiyotlar.

1. Ш.С. Абдуллаев, Р.Ш. Игамбердиева, О.Н. Шарапов Поражение почек при Covid–19: клинико–патогенетические аспекты и ведение пациентов с хронической болезнью почек

2. Guan W.J., Ni Z.Y., Hu Y., et al. Clinical characteristics of Coronavirus Disease 2019 in China. N. Engl. J. Med. 2020;382(18):1708–20.

3. Kwenandar F., Japar K.V., Damay V., et al. Coronavirus disease 2019 and cardiovascular system: A narrative review. Int. J. Cardiol. Heart Vasc. 2020; 29:100557.

4. Rubens J., Karakousis P., Sanjay J. Stability and viability of SARS–CoV–2. N. Engl. J. Med. 2020; 382:1964.

5. https://nefromon.ru/using/khronicheskiy–glomerulonefrit/